



NAMANGAN VILOYATI MINGBULOQ TUMANI HOKIMINING QARORI

2024-yil 24-dekabr

741-6-81-Q/24

Mingbuloq tumani hokimligi

Namangan viloyat hokimining 2024-yil 19-dekabrda "O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "Qishloq xo'jaligi hamda veterinariya va chorvachilik sohalari kadrlarining malakasini oshirish va qayta tayyorlash tizimini takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida" 2024-yil 4-dekabrda PQ-420-son qarori ijrosi haqida"gi 609-6-0-Q/24-sonli qarori to'g'risida

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "Qishloq xo'jaligi hamda veterinariya va chorvachilik sohalari kadrlarining malakasini oshirish va qayta tayyorlash tizimini takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida" 2024-yil 4-dekabrda PQ-420-son hamda Namangan viloyat hokimining 2024-yil 19-dekabrda 609-6-0-Q/24-sonli qarorlari ijrosini ta'minlash maqsadida, "Mahalliy davlat hokimiyati to'g'risida"gi O'zbekiston Respublikasi Qonunining 6 va 21¹-moddalariga asosan,

QAROR QILAMAN:

1. Namangan viloyat hokimining 2024-yil 19-dekabrda "O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "Qishloq xo'jaligi hamda veterinariya va chorvachilik sohalari kadrlarining malakasini oshirish va qayta tayyorlash tizimini takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida" 2024-yil 4-dekabrda PQ-420-son qarori ijrosi haqida"gi 609-6-0-Q/24-sonli qarori rahbarlik va ijro uchun qabul qilinsin.

2. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2024-yil 4-dekabrda PQ-420-sonli qarori bilan:

Quyidagilar

Qishloq xo'jaligi vazirligi huzuridagi Qishloq xo'jaligida bilim va innovatsiyalar milliy markazi (keyingi o'rinlarda Milliy markaz) tizimida quyidagilar negizida davlat muassasasi shaklida Qishloq xo'jaligi sohasi kadrlarining malakasini oshirish va qayta tayyorlash instituti (keyingi o'rinlarda Institut):

Toshkent davlat agrar universiteti huzuridagi Pedagog kadrlarni qayta tayyorlash va malakasini oshirish tarmoq markazi;

Toshkent davlat agrar universiteti huzuridagi "Agrobiznes va boshqaruv yo'nalishi bo'yicha agrosanoat majmui uchun rahbar va mutaxassis kadrlarni qayta tayyorlash va ularning malakasini oshirish markazi;

Xalqaro qishloq xo'jaligi universiteti huzuridagi Qishloq xo'jaligi sohasida kadrlarni qayta tayyorlash va ularning malakasini oshirish tarmoq markazi;

Oziq-ovqat texnologiyasi va muhandisligi xalqaro instituti huzuridagi Agrobiznes subyektlari salohiyatini oshirish markazi;

Veterinariya va chorvachilikni rivojlantirish qo‘mitasi huzurida quyidagilar negizida davlat muassasasi shaklida Veterinariya va chorvachilik sohasida pedagog hamda mutaxassis kadrlarni qayta tayyorlash va ularning malakasini oshirish instituti (keyingi o‘rinlarda Veterinariya sohasida kadrlar malakasini oshirish instituti):

Samarqand davlat veterinariya meditsinasi, chorvachilik va biotexnologiyalar universiteti huzuridagi Pedagog kadrlarni qayta tayyorlash va ularning malakasini oshirish tarmoq markazi;

Samarqand davlat veterinariya meditsinasi, chorvachilik va biotexnologiyalar universiteti huzuridagi Kadrlarni qayta tayyorlash va ularning malakasini oshirish markazi tashkil etilganligi;

Qishloq xo‘jaligi sohasi kadrlarining malakasini oshirish va qayta tayyorlash instituti hamda Veterinariya va chorvachilik sohasida pedagog hamda mutaxassis kadrlarni qayta tayyorlash va ularning malakasini oshirish institutining asosiy vazifalari va faoliyat yo‘nalishlari 1-ilovaga muvofiq;

Qishloq xo‘jaligi sohasi kadrlarining malakasini oshirish va qayta tayyorlash instituti hamda Veterinariya va chorvachilik sohasida pedagog hamda mutaxassis kadrlarni qayta tayyorlash va ularning malakasini oshirish institutida tashkil etiladigan qayta tayyorlash va malaka oshirish yo‘nalishlari 2-ilovaga muvofiq tasdiqlanganligi;

Institut va Veterinariya sohasida kadrlar malakasini oshirish institutida qayta tayyorlash va malaka oshirish kurslarini muvaffaqiyatli tamomlagan tinglovchilarga qat’iy hisobda turadigan davlat namunasidagi hujjat hisoblanadigan sertifikat berilishi;

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining va O‘zbekiston Respublikasi Hukumatining ayrim qarorlari 3-ilovaga muvofiq o‘z kuchini yo‘qotganligi ma’lumot va ijro uchun qabul qilinsin.

3. Tuman hokimining qishloq va suv xo‘jaligi masalalari bo‘yicha o‘rinbosari B.Muydinov, Qishloq xo‘jaligi bo‘limi (A.Xakimov), O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2024-yil 4-dekabrda PQ-420-son qarori bilan o‘rnatilgan tartibga muvofiq qishloq xo‘jaligi tizim tashkilotlari rahbar va mutaxassis kadrlari har uch yilda kamida bir marta malaka oshirish kurslarida o‘qitilishini choralarini ko‘rsin.

4. Qishloq xo‘jaligi bo‘limi (A.Xakimov), veterinariya va chorvachilikni rivojlantirish bo‘limi (T.Mirzayev) O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2024-yil 4-dekabrda PQ-420-son qarori talablaridan kelib chiqib ish tashkil qilsin.

5. Mazkur qarorning ijrosini nazorat qilish tuman hokimining qishloq va suv xo‘jaligi masalalari bo‘yicha o‘rinbosari B.Muydinov zimmasiga yuklansin.

Tuman hokimi



A.Mansurov